

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARIGA QO'SHGAN HISSASI

Raxmonova Muxabbatxon

TDYU huzuridagi M. S. Vosiqova nomidagi akademik litseyning

Fizika - Astronomiya o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19588366>

Kirish: Sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi, ilm-fan, texnologiya va falsafaga katta e'tibor bergan shaxs sifatida tarix saxnasida o'z o'rniga ega. Uning davrida Markaziy osiyo ilmiy markazga aylangan bo'lib, Samarqand va Buxoro shaharlarida qadimgi ilmiy maktablar va observatoriyalar tashkil etilgan. Bu maqolada Amir Temurning fizika faniga qo'shgan hissalarini, ilmiy meros iva zamonaviy fan rivojiga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi.

Asosiy qisim: Sohibqiron Amir Temur ilmu- ma'rifatga jiddiy e'tibor bergan shaxs bo'lib, u o'zi zabt etgan yurtlardagi olimu ulamo va fuzalolarni Samarqandga olib kelgan va ularni ijod qilishlari uchun yetarli shart sharoitlarni yaratib bergan.

Uning davrida tarixda mashxur olimlar yashab ijod etgan. Ular sirasiga Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, Sa'diddin Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi (Ali Qushchi), Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar kira

Ikkinchidan: Amir Temur davrida faoliyat ko'rsatgan asosiy ilmiy markazlar: Bibi Xonim madrasasi va Dorut-tilovat majmuasidir. Bibi Xonim madrasasi 1399-1404-yillarda qurilgan. Bu ulug' inshootda astronomiya, tibbiyot, matematika, falsafa fanlari o'qitilgan. Bu madrasa Amir Temurning suyuqli ayoli Bibi Xonim nomiga bag'ishlanib qurilgan.

Dorut-tilovat majmuasi esa ilm- fan va diniy ta'lim markazi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu majmua Amir Temurning otasi Amir Muhammad Tarog'ay Bahodir xotirasiga bag'ishlanib qurilgan. Amir Temur Samarqandda ulkan madrasalardan tashqari rasadxona va kutubxnalarni barpo qilgan.

Bu markazlar fizika, matematika va astronomiya sohasidagi tadqiqotlar uchun asosiy baza bo'lgan. Sohibqiron hukmronligi davrida Qozizoda Rumiy, Ulug'bek kabi buyuk olimlar yetishib chiqqan. Ulug'bekning rasadxonasi va sekstant kabi astronomik asboblari, vaqtni o'lchash va yulduzlar harakatini kuzatish amaliyotlari fizika fanining nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Sohibqiron Amir Temurning homiyligi ostida ishlagan olimlar mexanika va matematik modellar orqali tabiiy hodisalarni tahlil qilishni rivoltantirgan.

Masalan suv, shamol, va asboblarning harakati bo'yicha nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Amir Temurning fizika faniga qo'shgan hissalarini ko'plab vositalar va shart- sharoitlarda amalga oshirilgan:

1. Ilmiy observatoriyalarni tashkil etish
2. Mexanika va muhandislik sohasidagi amaliy rivojlanish
3. Ilm-fan orqali bilimlarni rivojlantirish

Uchinchidan: Ulug'bek rasadxonasi trigonometriya asosida harakatlarni tahlil qilish va masofalarni o'lchash usullari yulduzlar va sayyoralarning ko'rinma harakati bo'yicha nazariy hisob-kitoblar, astronomik kuzatuvlar orqali harakat va tezlik tushunchalarini mustahkamlash kabi hissalarini o'z ichiga oladi.

Konstruksiya barqarorligini tadqiq qilishda qulay vazn taqsimlashda, harakat va kuch munosabatlarini amalda qo'llashda, suv va havo oqimlarini nazorat qiluvchi asboblardan bilan dinamika asoslarini qo'llash orqali fizikani rivojlanishiga xizmat qilgan.

Bular natijasida eksperimental fizikaning dastlabki kurtaklari, koinot va yerdagi tabiiy hodisalarni fizik va matematik tahlil qilish, qogoz va yozuvlar orqali tizimni rivojlantirish yo'lga qo'yilgan.

Amir Temur davrida quyidagi ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan:

1. Suv va xavo tizimlari.
2. Asbobsozlik.
3. Ulug'bekning yulduzlar jadvali.

Ko'prik va kanallar qurishda mexanika va gidrodinamika qonunlari amalda qo'llanilgan.

Soat, kvadrant, sekstant, astrolab va boshqa ilmiy asboblardan fizik qonunlarga asoslanib ishlab chiqilgan. Ulug'bekning yulduzlar jadvali Samarqand observatoriyasida tuzilgan, astronomik kuzatuvlar orqali fizika qonunlari, masofa va vaqt o'lchovlari aniqlangan.

Xulosa: Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki, ilm-fan rivojiga katta xissa qo'shgan homiy sifatida tarixda katta o'rin tutadi.

Uning homiyligi ostida tashkil etilgan ilmiy markazlar, shifo maskanlari, kutubxonalar va rasadxonalar va matematik ishlanmalar fizika fanining rivojlanishiga asos bo'lgan. Sohibqiron davrida ilm-fan va texnologiya birgalikda rivojlangan.

Bugungi kunda Amir Temur merosi va uing fizika faniga qo'shgan hissasi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki yosh olimlar uchun ilhom manbasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manzurayev B. (2010). Amir Temur va ilm-fan rivoji. Toshkent: Fan va texnika.
2. Allamuratov S.(2015). Samarqand observatoriyasi va Ulug'bekning astronomik ishlari. Toshkent. Ilm-fan.